

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IDROK VA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA REFLEKSIV FAOLIYATNING AHAMIYATI

D.A.Xomidova, University of Business and Science oliy ta'lim muassasasi

Maktabgacha va maktab ta'limi fakulteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabga tayyorgarlik davrida ijodiy va idrok qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda refleksiv faoliyatning o'rni, rivojlantirishning samarali usullari haqida ma'lumotlar berilgan. Bolalarda ijodiy fikrlashni va o'z-o'zini tartibga soluvchi ta'limni kuchaytirish uchun pedagogik vosita sifatida aks ettiruvchi amaliyotlar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: aks ettirish faoliyati, kognitiv rivojlanish, ijodiy qobiliyatlar, idrok, maktabgacha ta'lim, maktabga tayyorgarlik.

THE IMPORTANCE OF REFLECTIVE ACTIVITY IN THE DEVELOPMENT OF PERCEPTUAL AND CREATIVE ABILITIES OF PRESCHOOL CHILDREN

D.A.Khomidova Teacher of the Faculty of Preschool and School Education

University of Business and Science

Abstract: This article provides information on the role of reflexive activity in the development of creative and perceptual abilities of preschool children in the period of preparation for school, as well as effective methods of its development. Reflective practices are shown as a pedagogical tool for strengthening creative thinking and self-regulated learning in children.

Keywords: reflexive activity, cognitive development, creativity, perception, preschool education, school readiness.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida maktabgacha yoshdagi bolani har tomonlama rivojlantirish, uni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash dolzarb masalalardan biridir. Maktabgacha yosh davri bolaning psixik rivojlanishida muhim bosqich bo'lib xizmat qiladi, Bolaning 3-7 yoshli davrida idrok, tafakkur, xotira va ijodiy qobiliyatlar jadal

shakllanadi. Shu sababli bolalarni maktabga tayyorlashda idrok va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Bola shaxsida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish, qiyinchiliklarni bartaraf etishda bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotiga jalb qilish alohida ahamiyatga ega. Ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson hayoti davomida olgan barcha ma'lumotlarning 80 foizini 7 yoshgacha bo'lgan davrida oladi. Darhaqiqat, bu davrda inson farzandi olamni anglaydi, ota-onaga, oilaga, mahallaga, Vatanga mehr-muhabbat uyg'onadi, butun umri davomida olgan bilimlariga zamin yaratadi. Bolaning keyingi davrida olgan bilimlari mustahkamlanib, sayqallanib, to'ldirilib boriladi, Maktabgacha ta'lim mazmuni va usullari bolaning shaxsini shakllantirish, uni mustaqil shaxs sifatida tan olish jarayonlari sodir bo'ladigan muhitda tashkil etiladi.

Zamonaviy ta'limda insonning ijodiy qobiliyatlari uning intellektining eng muhim qismi sifatida tan olinishi kerak. Insoniyat tomonidan to'plangan madaniy qadriyatlar odamlarning ijodiy faoliyati natijasidir. Kelajakda insoniyat jamiyatining qay darajada rivojlanishini yosh avlodning ijodiy salohiyati belgilab beradi.

Tarbiyachi-pedagoglar taqlid qilish - ijodkorlikni shakllantirishning asosiy mexanizmi ekanligini unutmasligi kerak. Bu shuni anglatadiki, bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun unga yaqin odamlar orasida bola o'zini tanitadigan ijodiy shaxs bo'lishi kerak. Bola uchun ijodiy xulq-atvor namunasi sifatida nafaqat ota-onalar (yoki ota-onalardan biri), balki boshqa kattalar ham (o'qituvchilar, oila do'stlari va boshqalar) harakat qilishlari mumkin. Agar bolalar uchun ota-onalar ko'proq ijodiy xususiyatlarga ega bo'lgan "ideal qahramon" bo'lsa, ayniqsa samarali bo'ladi. Aslini olganda "Ijodkorlik" - bu har xil turdagi ijodiy faoliyatning muvaffaqiyatini belgilaydigan shaxsning individual fazilatlari.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR SHARHI

John Dewey refleksiyaning "tajribani ongli ravishda qayta ko'rib chiqish" deb ta'riflaydi va uni ta'lim jarayonining markaziy mexanizmi sifatida ko'rsatadi. Uning

fikricha, reflektiv fikrlash bolalarda mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmasini shakllantiradi.

Lev Vigotskiy nazariyasida refleksiya ijtimoiy muhit va muloqot jarayonida rivojlanadi. "Yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi bolalarda idrok va ijodiy tafakkurni qo'llab-quvvatlashda kattalarning rahbarlik rolini asoslaydi.

Jean Piaget kognitiv rivojlanish nazariyasida maktabgacha yosh davrini preoperatsion bosqich sifatida izohlaydi. Bu davrda bola obrazli tafakkurga tayangan holda refleksiv elementlarni asta-sekin shakllantiradi. Mazkur olimlarning ishlari refleksiv faoliyatni bolalarning intellektual va ijodiy rivojlanishida muhim omil sifatida ko'rsatadi.

Aleksei Leontiev faoliyat nazariyasida bilish jarayonlarini faoliyat bilan bog'liq holda tushuntiradi. Uning qarashlariga ko'ra, refleksiya bolaning o'z harakatlarini anglashida namoyon bo'ladi.

Sergey Rubinstein esa psixik jarayonlarning faoliyat jarayonida rivojlanishini asoslab bergan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ota-onalar bolani majburlamasliklari kerak. Bu borada muvaffaqiyatga erishish uchun sabr-toqat va muayyan usul talab etiladi - ota-ona bolaning fikrini tinglashi, har qanday ijodiy faoliyatga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirishi kerak. Ota-onalar va tarbiyachilar qiziquvchanlikni rag'batlantirish, ularga bilim berish, turli tadbirlarga jalb qilish orqali bolalar tajribasini kengaytirishga hissa qo'shadilar. Tajriba va bilimlarni to'plash kelajakdagi ijodiy faoliyat uchun zaruriy shartdir. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlashlari katta yoshdagi bolalarnikiga qaraganda ancha erkindir. Bolalar ijodkorlikni namoyon qilishi uchun ularga ushbu xususiyatlarning barchasi birlashtirilishi kerak. Bizga ma'lumki maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ijodkorligini rivojlantirish bo'yicha turli mashg'ulotlar tashkil etiladi va bolalar ijodiy fikrlashga yo'naltiriladi. Bolaning ijodkorligini nafaqat maxsus faoliyatlarda rivojlantirish mumkin, balki bolalarning tasavvurini rivojlantirish uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati bo'lgan o'yin ham katta ahamiyatga ega. O'yin orqali ijodiy

qobiliyatlarni rivojlantirish eng yaxshisidir. Aynan o'yinda bola ijodiy faoliyatning birinchi qadamlarini qo'yadi.

Bola fantaziyasini uning ijodiy fikrlashini rivojlantirishning yana bir yorqin manbai ertakdir. Bolalarning tasavvurini rivojlantirish uchun pedagoglar foydalanishi mumkin bo'lgan ko'plab ertak usullari mavjud. Ular orasida: ertakni «buzib ko'rsatish», teskari yo'nalishda ertak o'ylab topish, ertakning davomini o'ylab topish, ertakning oxirini o'zgartirish. Tarbiyachi bolalar bilan ertak yozishi ham mumkin.

TAHLIL VA HATIJALAR

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, refleksiv faoliyat (o'z ishini tahlil qilish, xatolarni anglash, yangi variantlarni izlash) ijodiy tafakkurning rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Ayniqsa, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar va muhokama elementlari kreativlikni oshiradi.

Refleksiv faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalarda idrok jarayonini chuqurlashtiradi. U ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishida muhim psixologik mexanizm hisoblanadi. O'yin, muloqot va muammoli vaziyatlar refleksiyani shakllantirishning samarali vositalaridir. Klassik va zamonaviy pedagogik nazariyalar refleksiyani shaxs rivojining ajralmas qismi sifatida e'tirof etadi.

Tadqiqot va pedagogik kuzatishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Refleksiv faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalarda idrok jarayonlarini faollashtiradi va ularning kuzatuvchanligini oshiradi.
2. Refleksiya jarayoni bolalarda ijodiy yondashuvni kuchaytiradi, tasavvur va fantaziyaning rivojlanishiga yordam beradi.
3. Guruh muhokamalari va o'yinlardan keyingi refleksiya bolalarning nutq faoliyati va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi.
4. Refleksiv faoliyatni muntazam qo'llash maktabgacha ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi hamda bolalarning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda idrok va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Ushbu qobiliyatlar bolaning intellektual salohiyatini oshiradi, maktab ta'limiga moslashuvini osonlashtiradi

va kelgusida muvaffaqiyatli o'qishiga zamin yaratadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim jarayonida ushbu jihatlar alohida e'tibor qaratish lozim. Maktabgacha yosh ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ajoyib imkoniyatlar yaratadi. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda refleksiv faoliyatni tizimli ravishda tashkil etish idrok va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Pedagoglar ta'lim jarayonida refleksiyaga yo'naltirilgan metod va texnologiyalardan keng foydalanishlari zarur. Bu esa barkamol, mustaqil fikrlaydigan va ijodkor shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Refleksiv faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalarning idrok va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita bo'lib, uni ta'lim jarayoniga tizimli ravishda kiritish bolalarning intellektual va ijodiy rivojlanishini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V, T.2020
2. **Mavlonova R.** Maktabgacha ta'lim pedagogikasi – Toshkent: Nodirabegim, 2020.
3. O'yin orqali ta'lim olish. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V, T.2020
4. Z. Nishonova, G. Alimova "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi" Toshkent 2006
5. Leontev A.N. **Faoliyat. Ong. Shaxs.** – Moskva, 2005.
6. Ziyamukhamedov, J. (2022). PU Sungling's Creative Legacy as a Classic Example of Medieval Chinese Literature. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(1).
7. Maktabgacha yoshdagi bolalarda refleksiv kompetensiyalarni rivojlantirishda o'yinning ahamiyati. "Maktab va maktab ta'limi" jurnali, 2026-yil, fevral, (2)-son 526-530-
betlar.

[388_Xomidova_Dilorom_Abduraxmonovna_Xoshimova_Zuxra_Sulton_qizi.pdf](#)